IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLORATSIYASI VA AHOLI IJTIMOIY MUHOFAZASI

Doniyarova Saida Sharof qizi
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi
Haqberdiyeva Fariza Akmaljonovna
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi
Jahongir Toshniyozovich Ibragimov
Ilmiy rahbar: SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali
Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasi assistenti
e-mail: Jahongir.5066@gmail.com

Annotatsiya
Inson huquqi — shaxsning hayotiy ehtiyoji, yashashi, komil topishi uning jamiyat, davlat va boshqa shaxslar bilan aloqasi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlari. Inson huquqlari va erkinliklari tizimi o‘z yaralish ibtidosi va rivojlanish mantiqiga ega. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jumladan, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlari, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari belgilab berilgan.

Kalit so’zlar

Huquq, deklaratsiya, konstitutsiya, qonun, ijtimoiy muhofaza, erkinlik, me’yor, aholining zaif qatlami, inson qadr-qimmati, tenglik.

Аннотация

Право человека-жизненная потребность, существование, совершенство личности, свойства которой необходимы для ее связи с обществом, государством и другими лицами. Система прав и свобод человека имеет собственное бытие сотворения и логику развития. Свободное и эффективное осуществление прав человека является одним из основных признаков гражданского общества и правового государства. Конституция Республики Узбекистан устанавливает основные права, свободы и обязанности человека и гражданина, включая личные права и свободы, политические права, экономические и социальные права, а также гарантии прав и свобод человека.

Ключевые слова

Право, декларация, Конституция, закон, социальная защита, свобода, норма, уязвимость населения, человеческое достоинство, равенство.

Annotation

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

Human rights-the vital need, survival, perfection of a person's personality are the characteristics necessary for his connection with society, the state and other persons. The system of human rights and freedoms has its own genesis of creation and logic of development. The implementation of human rights in a free and effective way is one of the main signs of civil society and the legal state. The Constitution of the Republic of Uzbekistan defines the basic rights, freedoms and duties of people and citizens, including personal rights and freedoms, political rights, economic and social rights, as well as guarantees of human rights and freedoms.

Keywords

Law, declaration, Constitution, Law, Social Protection, freedom, norm, weak layer of the population, human dignity, equality.

Inson huquqlari — insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi imkoniyatlari hamda da'volarini tavsiflovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlarini mutlaq va nisbiy Inson huquqlariga bo'lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qiynoqlarga, zo'ravonlikka, inson sha'nini yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saqlash huquqi, o'z sha'ni hamda yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga e'tiqod qilish huquqi, shuningdek, sud tomonidan himoya qilinish va odil sudlov huquqi hamda shular bilan bog'liq eng muhim protsessual huquqlar mutlaq inson huquqlari sirasiga kiradi. Qolgan hamma inson huquqlari nisbiy bo'lib, favqulodda yoki harbiy holat tartibi joriy qilingan vaziyatda cheklab yoki to'xtatib qo'yilishi mumkin. Demokratik davlatda mutlaq inson huquqlarini har qanday vaziyatda ham cheklashga yoki vaqtincha to'xtatishga (bekor qilishga) yo'l qo'yilmaydi.

Adabiyotlarda „inson huquqlarining uch avlod" bosqichi haqida ko'rsatilgan.

Ular quyidagilardan iborat.

- Inson huquqlarining „birinchi avlodi" — fuqarolik va siyosiy huquqlar hisoblanadi.
- Inson huquqlarining „ikkinchi avlodi" — bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'siri ostida shakllandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida sanoati rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiyot sohasida sezilarli siljishlar ro'y berdi.
- Nihoyat, inson huquqlarining „uchinchi avlodi" — „hamjihatlik huquqlari" deb atalib, ular davlatlardan ustun turuvchi va kollektiv xarakterga ega. Umumiy e'tirof etilgan qoidaga ko'ra bu huquqlar: tinchlikka bo'lgan huquq, bexavotir tabiiy atrof muhitga bo'lgan huquq, insonniyatning iqtisodiy va madaniy merosidan foydalanish huquqi va boshqalar.

Insonning o'z erkinliklari, huquqlari va manfaatlari uchun davom etgan uzoq kurashi umuminsoniy ahamiyat darajasiga ko'tarilgan quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'zining moddiy ifodasini topgan:

- Erkinlikning buyuk xaritiyasi (1215 yil);
- Huquq to'g'risidagi petitsiya (1628 y);

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

- „Habea Cozpus AKT“ (1679 yil);
- Huquqlar to‘g‘risidagi bill (1689 yil);
- Amerika Virginiyasi huquqlari Deklaratsiyasi (1776 yil);
- Amerika Qo‘shma Shtatlarining mustaqillik Deklaratsiyasi (1776 yil);
- Fransuz inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi (1789 yil);
- Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948 yil);
- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida xalqaro Pakt (1966 y) va boshqalar.

Inson huquqlari barcha insonlarning umumbashariy va ajralmas huquqlari bo‘lib, qaysidir davlatga, millatga, fuqarolikka yoki dinga tegishli bo‘lmasin hamma uchun bir hildir. Bu huquqlar “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga” asoslangan[1]. Inson Huquqlari xalqaro ko‘lamda amal qilinib, xalqaro qonunlar, dunyoviy va diniy muassasalar, hukumatlar siyosati va nodavlat tashkilotlari tomonidan dunyo siyosatiga juda ham katta ta’sir ko‘rsatadigan doktrinadir. Inson huquqlari bu insonlarga berilgan imtiyoz bo‘lib u dunyoning ko‘pchilik taraqqiy etgan mamlakatlarida qonunlar, konstitutsiyaviy qadriyatlar normalari yoki xalqaro konvensiyalar orqali tan olingan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi — BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan deklaratsiya. U muqaddima va 30 moddadan iborat bo‘lib, uni qabul qilishdan maqsad har bir inson va davlat mazkur deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma’rifat va ta’lim orqali shu huquq va erkinliklar hurmat qilinishiga ko'maklashilishi lozim. Deklaratsiya har bir insonning tabiiy va ajralmas huquq va erkinliklari e’lon etilgan asosiy xalqaro hujjatdir. Shu tariqa xalqaro munosabatlar tarixida birinchi marta insonning hamma rioya etishi zarur bo‘lgan asosiy huquqlari va erkinliklari doirasi belgilab berilgan. Deklaratsiyada "insoniyat oilasining hamma a’zolariga xos qadr-qimmatni, ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish — erkinlik, adolat va yalpi tinchlik negizi" ekanligi e’lon etilgan[2]. Unga ko‘ra, umumhurmat va rioya qilishi shart bo‘lgan inson huquqlari doirasi shaxsiy, siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan iboratdir.

2-MODDA

Har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e’tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat’i nazar ushbu Deklaratsiyada e’lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo’lishi zarur.

Bundan tashqari, inson mansub bo’lgan mamlakat yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomidan, ushbu hudud mustaqilmi, vasiymi, o’z-o’zini idora qiladimi yoki boshqacha tarzda cheklanganligidan qat’i nazar biror bir ayirmachilik bo’lmasligi kerak[3].

Shaxsiy huquqlar orasida avvalo har bir kishining hayoti, erkinligi va shaxsiy daxlsizligi huquqi alohida ta’kidlangan. Deklaratsiyaning boshqa qoidalari esa mazkur huquqlarni to‘ldiradi. Xususan, hech kim qullikda, zabun holatda tutilmasligi, qiynoqqa yoxud ayovsiz, g‘ayriinsoniy, odam sha’nini yerga uradigan muomala va jazoga duchor etilmasligi, o‘zboshimchalik bilan qamoqqa olinmasligi,

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

ushlab turilmasligi lozim ekanligi qayd etilgan. Shaxs huquqlari sirasiga shaxsiy va oilaviy hayotning, turar joyning daxlsizligi huquqi, yozishmalarni sir saqlash huquqi, o‘z sha’ni va obro‘sini himoya qilish huquqi, odil sudlov tomonidan muhofaza etilish huquqi kabilar kiradi (3— 5, 8—12-moddalar).

Deklaratsiyada insonning quyidagi siyosiy huquqlari hamda erkinliklari ham ta’kidlangan: fikrlash, vijdon, din erkinligi; e’tiqod erkinligi va uni erkin ifodalash huquqi; tinch yig‘ilishlar o‘tkazish hamda uyushmalarga a’zo bo‘lish huquqi; o‘z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqi; yashirin ovoz berish yo‘li bilan umumiy va teng saylash huquqi; erkin ravishda ko‘chib yurish hamda o‘ziga turar joy tanlash huquqi; boshpana huquqi; milliy yoki diniy alomat bo‘yicha hech bir cheklovsiz nikohdan o‘tish va oila qurish huquqi; mulkka egalik qilish huquqi (13—21-moddalar).

Deklaratsiyada inson manfaatlarining ustuvorligi quyidagi tamoyillarda o‘z aksini topgan: inson huquqlarini hurmat qilish, inson huquqlarining tengligi, inson erkinliklari, inson huquqlarini amalga oshirishning demokratik jarayoni, inson huquqlarini ta’minlashning adolatligi. Deklaratsiyada e’lon etilgan mazkur inson huquqlariga oid tamoyillarga ko'ra barcha kishilar erkin tug‘iladi va o‘z qadr-qimmati hamda huquqlari jihatdan teng bo‘lib, ular qonun oldida teng va qonun tomonidan bab-baravar himoyalanish huquqiga ega (1, 2, 7-moddalar).

Mazkur Deklaratsiya qoidalari davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan inson huquqlarini buzish uchun ishlatilishi mumkin emas. Har bir shaxs uchun o‘zgalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish jamiyat a’zolarining burchidir.

Ushbu Deklaratsiya mustaqil O‘zbekiston Respublikasi imzolagan birinchi xalqaro hujjatdir (1991-yil 30-sentabr). O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Inson va fukarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb atalgan 2-bo‘limi mazkur Deklaratsiya talablariga to‘la moyil bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi barcha fuqarolari teng huquq va erkinliklarga ega bo‘lishi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqe'idan qat'i nazar, qonun oddida tengligi ta’kidlangan[4]. Respublikada inson huquqlariga oid 100 dan ortiq qonunlar qabul qilingan va ular xalqaro me’yorlar va andozalarga muvofiqlashtirilgan. "Inson huquqlari bo‘yicha Oliy Majlis vakili (ombudsman) to‘g‘risida" qonun qabul qilingan (1997-yil 24-aprel)[5]. Inson huquqlariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni ta’minlovchi milliy institutlar — Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz va Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti ishlab turibdi.

Birlashgan Millatlar xalqlari insonning asosiy huquqlariga, shaxsning qadr-qimmatiga, erkak va ayolning teng huquqliligiga, o’z e’tiqodlarini Nizomda tasdiqlaganliklari hamda yanada kengroq erkinlikda ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitlarini yaxshilashga ko’maklashishga ahd qilganliklarini e’tiborga olib a’zo bo’lgan davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini yalpi hurmat qilish va unga rioya qilishga ko’maklashish majburiyatini olganligini e’tiborga olib; mazkur huquqlar va erkinliklarning xarakterini yalpi tushunish ushbu majburiyatlarning to’liq ado etilishi uchun katta ahamiyatga ega bo’lishini e’tiborga olib;

Bosh Assambleya mazkur Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga intilishi lozim bo’lgan vazifa sifatida e’lon qilar ekan, bundan muddao shuki, har

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti doimo ushbu Deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma’rifat va ta’lim yo’li bilan bu huquq va erkinliklarning hurmat qilinishiga ko’maklashishi, milliy va xalqaro taraqqiyparvar tadbirlar orqali ham uning bajarilishi ta’minlanishiga, Tashkilotga a’zo bo’lgan davlatlar xalqlari o’rtasida va ushbu davlatlarning yurisdiktsiyasidagi hududlarda yashayotgan xalqlar o’rtasida yalpisiga va samarali tan olinishiga intilishlari zarur.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy davlatchiligimizning mustahkam poydevori barpo etildi, qonun ustuvorligi va inson huquqlari, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan boshqa ajralmas huquqlari ta'minlandi. Bunga birgina misol tariqasida mustaqillikning ilk yillaridayoq ishga tushirilgan “Inson huquqlari bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Milliy markazi”ni ko’rib chiqishimiz mumkin. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi (keyingi o‘rinlarda - Markaz) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 31 oktyabrdagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to‘g‘risida” Farmoniga asosan tashkil etilgan[6].

Markaz inson huquqlari sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish bo‘yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlarning o‘zaro hamkorligini, milliy ma’ruzalar tayyorlanishini, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirishni ta’minlovchi davlat organi hisoblanadi. Markaz o‘z vakolatlarini barcha davlat organlari va tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi.

Markaz har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga inson huquqlari sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga rioya etilishi holati to‘g‘risida axborot taqdim etadi.

Markaz davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ta’lim, ilmiy-tadqiqot va boshqa tashkilotlarning faoliyatiga inson huquqlari sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish masalalari bo‘yicha ko‘maklashadi.

Bizning asosiy maqsadimiz mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirishga ko‘maklashish hamda aholining inson huquqlari madaniyati va savodxonligini oshirishdan iborat.

Ushbu markaz “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ga asoslangan holda respublikamiz hududida fuqarolarning insoniy huquqlarini himoya qilish va ularning ijtimoiy muhofazasini ta’minlashga asoslanib o’z faoliyatini olib boradi.

Aholi ijtimoiy muhofazasining asosiy maqsadi aholi farovonligining to‘xtovsiz yaxshilanishini ta’minlash, aholi qatlamlarining ta’lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta’minlashga yordam berishdan iborat. Ijtimoiy muhofazaning asosiy yo‘nalishlari: erkin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishni ta’minlash; ish bilan bandlik, kasb tanlash, o‘qish va bilim olish; daromadlarning kafolatlanishi; har bir fuqaroning o‘z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo‘lishi; iste’molchilar himoyasi, iste’molchilar jamiyatlari; tovarlar va xizmatlar sifati, iste’mol kafolatini ta’minlash; aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish; ijtimoiy ta’minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta’minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish. Davlatimiz tomonidan ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholini qo’llab-quvvatlash uchun ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

Bulardan biri: Vazirlar Mahkamasining “Xalqaro taraqqiyot uyushmasi” ishtirokidagi «Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini mustahkamlash» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi.

Aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini ijtimoiy yordam tizimiga kiritish mexanizmlarini takomillashtirish hamda integratsiyalashgan mehnat bozori axborot tizimini joriy qilish, Jahon banki bilan hamkorlikni yanada kengaytirish maqsad qilingan. 2019 yilda «Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini mustahkamlash» loyihasini amalga oshirish doirasida O‘zbekiston Respublikasi va Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU) o‘rtasida 5 yillik imtiyozli davrni hisobga olgan holda qaytarish muddati 30 yil bo‘lgan 50 mln AQSh dollari miqdoridagi Moliyaviy bitim imzolangan. Bunda O‘zbekistonning ulushi 11,48 mln AQSh dollarini, shu jumladan soliq va bojxona imtiyozlari berish tarzidagi ulushi 6,9 mln AQSh dollariga ekvivalentni tashkil etadi. Loyihani amalga oshirish muddati 2019–2024 yillarni tashkil etadi.

Albatta bu ishlarning barcha xalq farovonligini, aholi ijtimoiy muhofazasini ta’minlash uchun amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonning demokratik o‘zgarishlarga sodiqligini namoyish qilish, yurtimizda kechayotgan ulkan o‘zgarishlar va yangilanishlar davrida avvalo inson huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirish birlamchi vazifalardan sanaladi. Xususan, inson huquqlarini rag‘batlantirish, himoyalash va ularga rioya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish va uni yanada rivojlantirish yo’lida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha maslahat kengashi tuzilgan, “Inson huquqlari himoyasi uchun” ko‘krak nishoni ham ta’sis etilgan[7]. Bunga sabab o’z huquqlari ta’minlanganligiga ishonch hosil qilgan fuqaroda davlatga nisbatan ishonch hissi paydo bo’ladi. Fuqaro va davlat o’rtasidagi bunday mustahkam aloqa esa rivojlanish sari yetaklovchi yo’l hisoblanadi.

Xulosa

Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash masalasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishga qaratilgan demokratik islohotlarning bosh mezoniga aylanib bormoqda. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga tizimli hamda bosqichma-bosqich implementatsiya qilinmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 80 dan ortiq inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro hujjatlar normalari milliy qonunchilikda o'z aksini topmoqda. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar insonlar hayotini, dunyoqarashini hamda turmush tarzini o'zgartirmoqda. Jamiyatda «Yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz» degan ulug'vor maqsad shakllandi va «Jamiyat — islohotlar tashabbuskori» degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga faol kirib bormoqda. O'zbekiston xalqaro maydonda amalga oshirayotgan barcha chora-tadbirlar doirasida inson huquqlarini amalga oshirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Mamlakatimiz xalqaro huquqning sub'ekti sifatida o'z rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarildi va xalqaro shartnomalar tuzish tashabbuskori sifatida xalqaro normalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etib kelmoqda.

O'zbekistondagi inson huquqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni sarhisob qilib, quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin:

- Inson huquqlari bo'yicha qonunchilik shakllantirildi;

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

- Mamlakatda inson huquqlarini ta'minlashning institutsional mexanizmlari yaratildi;

- Davlat inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirmoqda;

- Inson huquqlari bo'yicha ta'lim va ma'rifat amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet sahifalar

1. Inson huquqlari umumjahon dekloratsiyasi 1948y. 10 dekabr

2. Inson huquqlari umumjahon dekloratsiyasi 1948y. 10 dekabr

3. Inson huquqlari umumjahon dekloratsiyasi 1948y. 10 dekabr

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992y. 10 dekabr

5. "Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili (ombudsman) to'g'risida" qonun 1997y. 24aprel

6. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to'g'risida" farmoni 1996y. 31oktyabr

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son Farmoni

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to'g'risida" Farmoni. 1996y 31 oktyabr

9. www.constitution.uz

10. https://lex.uz/docs/-6445145

11. http://www.insonhuquqlari.uz/

WORDLY
KNOWLEDGE